

ZAMONAVIY ADABIYOTDA FENTEZI JANRINING BADIY VA LISONIY XUSUSIYATLARI

Bo'riyeva Nargiza Qo'chqarovna,

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsent, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada fentezi janrining zamonaviy adabiyotdagi o'рни, nazariy talqinlari va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Fentezining fantastik adabiyot doirasidagi maqomi turli olimlar qarashlari asosida yoritilib, uning mustaqil adabiy janr sifatidagi belgilari asoslab beriladi. Tadqiqotda janrning kompozitsion qurilishi, syujet dinamikasi, obrazlar tizimi, mifologik asoslari hamda lisoniy vositalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, "janr" va "yo'nalish" tushunchalari qiyosiy tahlil qilinib, fentezining barqaror mazmuniy, shakliy va konseptual xususiyatlarga ega ekanligi ko'rsatiladi. Natijada fentezi o'ziga xos estetik tamoyillar, takrorlanuvchi struktura va nominativ mexanizmlarga tayanuvchi mustaqil janr sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Fentezi janri, zamonaviy adabiyot, fantastik adabiyot, adabiy janr, adabiy yo'nalish, lingvistik tahlil, konseptual tuzilma, mifologik motivlar, badiiy olam, syujet modeli, kompozitsion qurilish, lisoniy vositalar, obrazlar tizimi, estetik tamoyillar, nominativ mexanizmlar.

Abstract. This article analyzes the place of the fantasy genre in modern literature, its theoretical interpretations, and its linguistic features. The status of fantasy within fantastic literature is examined on the basis of the views of various scholars, and its characteristics as an independent literary genre are substantiated. The study considers the genre's compositional structure, plot dynamics, system of images, mythological foundations, and linguistic means. In addition, the concepts of "genre" and "trend" are comparatively analyzed, demonstrating that fantasy possesses stable semantic, formal, and conceptual features. As a result, fantasy is evaluated as an independent genre based on distinctive aesthetic principles, recurring structures, and nominative mechanisms.

Keywords: Fantasy genre, modern literature, fantastic literature, literary genre, literary trend, linguistic analysis, conceptual structure, mythological motives, artistic world, plot model, compositional structure, linguistic means, system of images, aesthetic principles, nominative mechanisms.

Аннотация. В данной статье анализируются место жанра фэнтези в современной литературе, его теоретические интерпретации и лингвистические особенности. Статус фэнтези в рамках фантастической литературы освещается на основе взглядов различных ученых, а также обосновываются его признаки как самостоятельного литературного жанра. В исследовании рассматриваются композиционное построение жанра, динамика сюжета, система образов, мифологические основы и языковые средства. Кроме того, в сравнительном аспекте анализируются понятия «жанр» и «направление», что позволяет показать наличие у фэнтези устойчивых содержательных, формальных и концептуальных характеристик. В результате фэнтези оценивается как самостоятельный жанр, опирающийся на собственные эстетические принципы, повторяющиеся структуры и номинативные механизмы.

Ключевые слова: жанр фэнтези, современная литература, фантастическая литература, литературный жанр, литературное направление, лингвистический анализ, концептуальная структура, мифологические мотивы, художественный мир, модель сюжета, композиционное построение, языковые средства, система образов, эстетические принципы, номинативные механизмы.

Kirish. Zamonaviy adabiyotda fantastik yo'nalishlar orasida fentezi janri o'zining boy tasavvur olami, qadimiy mifologiyaga tayangan g'oyalari va o'ziga xos badiiy vositalari bilan alohida o'rin egallaydi. U nafaqat badiiy ijod, balki kino, teatr va boshqa madaniy sohalarda ham keng tarqalib, keng auditoriya e'tiborini qozongan. Ba'zi tadqiqotchilar fentezi janrini alohida janr emas, balki fantastik adabiyotning bir yo'nalishi

deb hisoblaydilar [18.6]. Fentezi janri o'z ildizlari bilan ancha qadimga borib taqaladi. Syujet qurilishi, kompozitsiyasi, tili, olam yaratish prinsiplari va qahramonlar tizimi kabi jihatlari uni boshqa fantastik yo'nalishlardan tubdan ajratib turadi. Shu bois uni alohida adabiy janr sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. D. Nasriddinov ham ushbu fikrni qo'llab, ba'zi tadqiqotchilar fentezini fantastik adabiyotning yo'nalishi sifatida talqin qilishini ta'kidlaydi. Biroq, u syujet qurilishi, til va olam yaratish prinsiplari kabi jihatlar fentezini boshqa fantastik janrlardan tubdan farqlashini qayd etib, alohida adabiy janr sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiqligini aytadi.

Adabiyotlar tahlili. Fentezini o'rganishda muayyan muammolar yuzaga keladi. Xususan, unga beriladigan ta'riflarning xilma-xilligi, qo'llaniladigan leksikaning o'ziga xosligi va turli konseptlarning bir mavzu doirasida uyg'unlashuvi ushbu murakkablikni yuzaga keltiradi.

Masalan, M.S. Galina va E.N. Kovtun fentezini mustaqil janr sifatida baholash, A. Karelin uni ilmiy fantastikaning "*kichik janri*" deb hisoblaydi, A.I. Osipov fentezini yo'nalish sifatida [15], V.L. Gopman esa fantastik adabiyotning bir turi sifatida talqin qiladi. M. Tursunova fentezini o'z qonun-qoidalari, sehri komponentlari va o'ziga xos olam modeli bilan ajralib turuvchi murakkab janr sifatida ko'radi.

Ushbu qarashlar fentezi janrining turli jihatlarini ochib bersa-da, mazkur tadqiqotda ular lingvistik mezonlar asosida qayta talqin qilinadi va fentezi matnining ichki konseptual tuzilishi bilan bog'liq holda baholanadi. Fentezi janrining chegaralarini belgilash zamonaviy adabiy tanqidning muhim masalasi bo'lsa, tilshunoslik uchun uning lisoniy birliklari, nominativ vositalarining funksional xususiyatlari va konseptlarning ifodalanishi tadqiqot obyekti hisoblanadi. Adabiy xususiyatlar tanqidiy adabiyotda, stilistik, kognitiv va pragmatik jihatlar esa tilshunoslikda tahlil qilinadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, adabiyotshunoslikda janr tushunchasiga oid yagona va qat'iy ta'rif mavjud emas. Yu.N. Tinyanov ta'kidlaganidek, janrning statik va bir ma'noli ta'rifi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, chunki u doimiy o'zgaruvchan tizim hisoblanadi. Olimning fikricha, "janrni saqlab qolish uchun unga zarur bo'lgan o'ziga xos xususiyat ajralib turadi". Ammo Yu.N. Tinyanov bu xususiyatlarning qanday aniqlanishi va ilmiy mezonlari borasida aniq metodologik yo'l ko'rsatmaydi, bu esa janrni ilmiy tasniflashda muayyan noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, struktur-semantik va lingvopoetik metodlardan foydalanildi. Fentezi janriga oid nazariy qarashlar turli olimlar konsepsiyalari asosida solishtirilib, janrning kompozitsion, mazmuniy va lisoniy xususiyatlari tizimli tahlil qilindi. Shuningdek, badiiy matnlar asosida janrning konseptual tuzilmasi va nominativ mexanizmlarini aniqlashda deskriptiv va interpretativ yondashuvlar qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. Zamonaviy ommaviy madaniyatda fentezi janrining ta'siri muhim o'rin tutadi. Bu janr, ayniqsa 20-asr oxirlarida mashhurlikka erishdi. Fenteziga oid

asarlari ko'plab tillarga tarjima qilindi va ular asosida mashhur kinofilmlar yaratildi. Ijtimoiy tarmoqlarda fenteziga bag'ishlangan turli saytlar va elektron jurnallar mavjud. Jumladan, ingliz tilidagi *Mapping the Impossible*, *Fafnir – Nordic Journal of Science Fiction and Fantasy Research*, *Clarkesworld Magazine* va *Uncanny Magazine* kabi nashrlar ushbu janrning nazariy va badiiy rivojiga xizmat qilmoqda. Fantastik asarlar asosida yaratilgan o'yinlar ham fentezi madaniyatining muhim tarkibiy qismidir. Masalan, J.R.R. Tolkin ijodiga asoslangan *The Lord of the Rings Online* va *The Lord of the Rings: Return to Moria* kabi o'yinlar mavjud. *Harry Potter* olami asosida esa *Hogwarts Legacy*, *Hogwarts Mystery*, *Quidditch Champions*, *Magic Awakened* kabi o'yinlar yaratilgan. Fentezi janri nafaqat madaniyatning turli shakllarida o'z aksini topmoqda, balki ularning rivojiga asos bo'luvchi birlamchi omil sifatida qaralmoqda. Bahodir Xoliqovning fikriga ko'ra, fentezi dunyosi voqealarga boy bo'lib, hayotning to'liqligini his ettiradi va ruhiy yuksalish tuyg'usini uyg'otadi. Unda personajlar "oliy kuchlar" bilan aloqaga kirishadi va ular bilan bir butunlikni hosil qiladi. Ilmiy fantastikadan farqli ravishda, fentezi olami obyektiv idealizm nuqtayi nazaridan tasvirlanadi; bu olam zaminida yaratuvchi, iblis yoki boshqa bir demiurgning qudrati ko'rinib turadi.

B.V. Tomashevskiy janrni asarda qo'llaniladigan ustuvor badiiy usullar majmui sifatida talqin qilib, ushbu usullarni "dominant" tushunchasi orqali izohlaydi. Olimning ta'kidlashicha, janr belgilarida asarning kompozitsiyasini tashkil etuvchi texnik tuzilmalar yetakchi o'rin tutadi va boshqa barcha badiiy vositalarni o'ziga bo'ysundiradi. Dominantlarning muayyan kombinatsiyasi janrning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan B.V. Tomashevskiy janrni ikkilamchi belgi emas, balki asarning ichki badiiy tizimini belgilovchi asosiy omil sifatida baholaydi.

Ushbu yondashuvga yaqin holda, G.N. Pospelov ham janrni turli davrlar va milliy adabiyotlar taraqqiyotida tarixan takrorlanib turadigan mazmuniy va shakliy belgilar majmuasi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, asar mazmunidagi murakkablikni tushinishda aynan shu takrorlanuvchi jihatlarni aniqlash zarur, chunki ular janrning barqaror xususiyatlarini belgilaydi. Shunday qilib, janrni asarning ichki tarkibi va o'ziga xos badiiy tizimi bilan bog'liq holda, uning mazmuniy-struktural xususiyatlariga tayanib aniqlash mumkin.

V.V. Kojinov esa janrni kompozitsion, obrazli va lisoniy vositalarning yagona badiiy tizimi sifatida talqin qiladi. Olim janrning mazmun bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlab, mazmun va ifoda uyg'unligini janrni belgilovchi asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv janrni faqat kompozitsion yoki mavzuiy hodisa emas, balki murakkab badiiy-lisoniy tizim sifatida qarash imkonini beradi.

Fentezini boshqa janrlardan ajratib turuvchi asosiy belgilarni asarlarning kompozitsion xususiyatlarida ko'rish mumkin. Jumladan:

- fantastik tasvirlarga asoslangan kompozitsion qurilish;

- qahramonning sarguzashtlarga asoslangan harakat zanjiri;
- syujetning bir sarguzashtdan boshqasiga dinamik tarzda o'tishi;
- doimiy syujet dinamikasi va voqeaviy intensivlik.

Bu belgilar fentezi janrining shakliy tuzilmasini aniqlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. M.M. Baxtin bunday kompozitsion qurilmani "sayohat romani" yoki "sud romani" kabi janrlarga xos deb hisoblaydi. Shu sababli fentezi bunday kompozitsiyaga ega bo'lgan yagona adabiy hodisa emas.

G.N. Pospelovning janr haqidagi konsepsiyasiga tayangan holda, fentezini mazmunning tipologik belgilari asosida shakllanuvchi janr tizimi sifatida talqin qilish mumkin. Olimning fikricha, janr xususiyatlari asarning tashqi shakliga emas, balki chuqur badiiy mazmunidagi takrorlanuvchi elementlarga bog'liq. [17] Zamonaviy adabiyotshunos V.E. Xalizev bu yondashuvni bir tomonlama deb baholagan bo'lsa-da, ko'plab janrlar, ayniqsa fentezi, aynan mazmun va shaklning o'zaro uyg'unligida namoyon bo'ladi. V.V. Kojinovning janrni mazmun va ifoda vositalarining o'zaro bog'liq tizimi sifatida talqin qilishi ham buni tasdiqlaydi. Fentezi umumiy estetik qoidalar va tasavvurlarga asoslanganligi sababli ba'zan adabiy yo'nalish sifatida talqin qilinadi. Biroq uning qat'iy kompozitsion tuzilmasi, tipik syujet modeli, takrorlanuvchi obrazlar tizimi va badiiy vositalari uni mustaqil adabiy janr sifatida tasniflash uchun yetarli asos yaratadi.

"Yo'nalish" tushunchasi "janr"ga qaraganda nisbatan aniqlashtirilgan ta'rifga ega bo'lib, turli tadqiqotchilarning yondashuvida deyarli bir xilda talqin etiladi. Masalan, G.N. Pospelov adabiy yo'nalishni "ma'lum bir mamlakat va davrda yashab ijod qilgan yozuvchilarning asarlarida mazmun va shakl jihatdan namoyon bo'ladigan umumiy xususiyatlarga, shuningdek, aniq estetik dasturga ega bo'lgan adabiy oqim" sifatida ta'riflaydi. Demak, adabiy yo'nalish umumlashgan, fundamental estetik asosga ega bo'lgan hodisa sifatida qaraladi.

G.N. Pospelov yo'nalishni janrdan farqli tarzda talqin qiladi va uni tarixiy taraqqiyot kontekstida yuzaga keladigan o'ziga xos adabiy hodisa deb baholaydi. V.V. Kurilov esa adabiy yo'nalishni "adabiy taraqqiyotning asosiy shakli, uning harakat bosqichi bo'lib, u muayyan tarixiy davr yozuvchilarining ijodini qamrab oladi", – deb ta'kidlaydi.

Fentezini adabiy yo'nalish sifatida ham talqin qilish mumkin, chunki u fantastik adabiyotning muayyan bosqichida shakllanib, umumiy estetik asosga ega bo'lgan, keng yozuvchilar doirasining asarlarida takrorlanuvchi mazmuniy va g'oyaviy elementlarni birlashtiradi. Yuqori fentezi, "qilich va sehr" fentezisi, slavyan fentezisi kabi turli ko'rinishlarning mavjudligi fentezini adabiy harakat doirasida shakllangan oqimlar majmuasi sifatida baholash imkonini beradi. Ayrim tadqiqotchilar aynan shu asosda fentezini XX–XXI asrlarda Yevropa, AQSh va Rossiyada keng tarqalgan, o'ziga xos dunyo manzarasi, tipik obrazlar va muayyan syujet modellariga ega bo'lgan adabiy yo'nalish sifatida talqin qiladilar. [9; 37-42-b.] Shu sababli, fentezini adabiy yo'nalish sifatida talqin etishga asos bo'luvchi omillar ham mavjud.

Biroq fentezi adabiyotini “adabiy yo‘nalish” tushunchasi bilan belgilash nazariy jihatdan munozarali hisoblanadi. Xususan, ilmiy fantastikani mavzu va g‘oyaviy yo‘nalish asosida shakllangan adabiyot sifatida izohlovchi yondashuvlar fentezi uchun to‘liq mos kelmaydi, chunki fentezi faqat mavzuga asoslanmay, balki o‘ziga xos shakl va badiiy tuzilishga ega. Shu bois fentezini mavzuiy hodisa emas, balki aniq badiiy modelga ega tizim sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha, fentezi ilmiy-fantastik adabiyot doirasida shakllangan bo‘lsa-da, bugungi kunda u barqaror syujet modeli, takrorlanuvchi konseptual tuzilma va o‘ziga xos lisoniy mexanizmlarga ega mustaqil adabiy janr sifatida namoyon bo‘ladi. U klassisizm, romantizm yoki realizm kabi tarixiy yo‘nalishlar qatoriga to‘liq kiritilmasa-da, barqaror g‘oyaviy va badiiy tamoyillarga tayanishi uning o‘ziga xos estetik negizga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu qarashni D. Nasriddinov ham qo‘llab-quvvatlab, fentezini qadimiy miflar, ertaklar va ritsarlik romanslari asosida shakllangan, mustaqil estetik va g‘oyaviy tamoyillarga ega adabiy janr sifatida baholaydi. Ayniqsa, G‘arb adabiyotida J.R.R. Tolkin an‘anasi bilan bog‘liq fentezi modeli o‘ziga xos syujet arxitekturasi, dramatik tuzilma va axloqiy-estetik mezonlarga ega bo‘lib, janr doirasida ichki barqarorlikni ta‘minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, fentezi asarlarida ezgulik va yovuzlikning qarama-qarshiligi, sehr-joduga asoslangan xayoliy olamlar, qahramonning sinov va o‘shish yo‘li, shuningdek, mifologik va arxetipik obrazlar tizimi doimiy “dominant” belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyatlar fentezini adabiy yo‘nalish emas, balki shakl va mazmun jihatidan barqaror, ichki qonuniyatlarga ega bo‘lgan mustaqil adabiy janr sifatida baholash uchun yetarli asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nasriddinov D. *Fantasy genre and its scientific interpretation in theoretical views* // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika / Foreign Linguistics and Linguodidactics. 2023. – №1(2). – B. 56-62. – DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss2-pp56-62>
2. Nasriddinov D. Fentezi genezisi va uning ilmiy talqini // *Ilmiy axborotnoma*. SamDU. – № 6 (124/2). 2020 – B. 5-12.
3. Tursunova M.I. Zamonaviy o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik va realistik kategoriyalar uyg‘unligi. Filol.fan.b.fals.dok. (PhD)...diss. avtoref. –Namangan: Namangan davlat chet tillar instituti, 2024. – 64 b.
4. Xoliqov B.A. Fentezi, mifologik personajlar va fantastika: umumiylik va kontrast // Xorijiy filologiya. – SamDChTI. 2024. № 4 (93). – B. 5-8.
5. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 235.
6. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М., 1986. – 400 с.
7. Галина М.С. Авторская интерпретация универсального мифа (Жанр «фэнтези» и женщины писательницы) // *Общественные науки и современность*. № 6. 1998. – С. 161-170.;
8. Гопман В.Л. Фэнтези // *Литературная энциклопедия терминов и понятий*. – М., 2001. – С. 654;
9. Кагарлицкий Ю.И. Что такое фантастика? – М., 1974. – 352 с.
10. Карелин А. Классики. Предтечи фэнтези. URL: <http://mirf.ru/Articles/art285.htm>.;
11. Ковтун Е.Н. Поэтика необычайного: художественные миры фантастики, сказки, утопии, притчи и мифа (на материале европейской литературы первой половины XX века). – М., 1999. – 308 с.;

12. Кожин В.В. Проблемы художественного стиля. – М.: Советский писатель, 1962. – С. 112.
13. Кожин В.В. Происхождение романа. – М., 1963. – 402 с.
14. Курилов В.В. Направление и метод: к проблеме их соотношения // Творческие методы и литературные системы. – М., 1987. – С. 41-51.
15. Осипов А.Н. Фэнтези // Он же. Фантастика от «А» до «Я»: краткий энцикл. справочник. – М., 1999. – С. 320.
16. Поспелов Г.Н. Взаимодействие литературных направлений и художественных методов // Творческие методы и литературные системы. – М., 1987. – С. 17-28.
17. Поспелов Г.Н. Проблемы исторического развития литературы. – М., 1972. – 271 с.
18. Толкачёва В.С. Фэнтези: жанр или литературное направление? // Известия ВГПУ. 2010. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fentezi-zhanr-ili-literaturnoe-napravlenie> (дата обращения: 28.05.2025).
19. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М., 2002. – 334 с.
20. Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – М., 1977. – 575 с.
21. Хализев В.Е. Теория литературы. – М., 2005. – 500 с.
22. Ханютин Ю. Реальность фантастического мира. – М., 1977. – 322 с.

